



MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN



V INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "ABU ALI IBN SINO (AVICENNA) AND INNOVATIONS IN MODERN PHARMACEUTICS"

May 21th, 2022

Tashkent city, Republic of Uzbekistan



ГЕДЕОН РИХТЕР

ЎЗБЕКИСТОН ФАРМИЙ ҲУҚУҚИ ФАҚУЛТАТИ
БИОФАРМАЦЕВТИКАЛАР ҲАМДА "ТАБОБИ" АКАДЕМИЯСИ РАЙОНИ



SECONDARY METABOLITES FROM AERIAL PART OF <i>SILENE TOMENTELLA</i>	132
Yusupova U.Yu., Ramazonov N.Sh.	
CHEMICAL COMPOSITION AND PHARMACOLOGICAL ACTIONS OF <i>ZEA MAYDIS CUM STIGMAS</i>	133
Tashtemirova M.A.	
DETERMINATION OF ROUTINE CONTENT IN POMEGRANATE PEEL EXTRACT WITH HPLC METHOD	133
Isakov H., Turahanov S.O., Altibaev D.I.	
УЗУМ УРУҒИ ТАРКИБИДАГИ МАКРО ВА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАР МИҚДОРINI АНИҚЛАШ.....	134
Рустамов С.А., Муслимова И.М., Юлдашева С.М.	
СЕКЦИЯ 5. ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРЕПАРАТОВ, СИНТЕЗИ-	
РОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ПРИРОДНЫХ И СИНТЕТИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ	
ТАБИИ ВА СИНТЕТИК BIRIKMALAR ASOSIDA SINTEZ QILINGAN DORI	
VOSITALARNING FARMAKOLOGIK TADQIQOTLARI	
O'RTA VA KEKSA YOSHDAGI AYOLLARDA KOMPLEKS DAVOLASH DASTURIDA QIZIL QO'ZIQORIN EKSTRAKTINI-QO'ELASH VA UNING SAMADORLIGINI BAXOLASH.....	136
Axmedova D. M. Toxtamuratova Z.Sh.	
THE EFFICACY OF FORMULATION FROM CLASSICS OF IBN SINA ON LIVER CIRRHOTIC PATIENTS: A RANDOMIZED, DOUBLE-BLIND, PLACEBO-CONTROLLED FIRST APPROACH.....	136
Prof. Athar A.	
ЦЕНТРАЛЬНОЕ АНАЛЬГЕТИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ ДИТЕРПЕНОИДНЫХ АЛКАЛОИДОВ 1-О-БЕНЗОИЛГЕТЕРАТИЗИНА И ТАДЖАКОНИНА.....	138
Ахмаджонов К., Турсунходжаева Ф.М., Макеудова А.Н.	
КАРСИЛ ФОРТЕ И ЕГО МНОГОГРАННОЕ ДЕЙСТВИЕ	139
Азизова Р.А., Касимова Ш.Ш., Ҳақбердиева Г.Э.	
АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ЭКСТРАКТОВ <i>LEONURUS TURKESTANICUS</i> И <i>AJUGA TURKESTANICA</i> ИЗ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE.....	140
Бокова А., Зарипова М., Абдуазимова Д.	
EKSPERIMENTAL ME'DA YARASI MODELLARIDA LESBOXOL SAMARADORLIGINI O'RGANISH	140
Djanayev G' Yu., Mustanov T.B., Xudayberdiyev X.I., Mamadjanova M.A.	
EKSPERIMENTAL ETANOLLI GASTROPATYADA LESBOXOLNING GASTROPROTEKTIV TA'SIRI	141
Djanayev G' Yu.	
TEMIR TANQISLI ANEMIYANI DAVOLASHDA SUMBUL O'SIMLIGINI SAMARASI.....	142
Ergashova Sh.I., Yigitov A.O'., Muxamadiyev N.K.	
ДИГИДРОКВЕРЦЕТИН ФЛАВОНОИДИНИ КАЛАМУШ ЖИГАР МИТОХОНДРИЯСИ НАФАС ОЛИШИ ҲАМДА ОКСИДЛАНИШЛИ ФОСФОРЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	143
Эрназаров З.М., Позиллов М.К., Холликова М. Ж., Журакулов Ш.Н.	
CRATAEGUS (ДЎЛАНА) ЭКСТРАКТИНИ АОРТА ПРЕПАРАТИ L-ТИП СА ²⁺ -КАНАЛЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ.....	144
Иномжонов Д.Р., Омонтурдиев С.З., Гайибов У.Г., Зарипова М.Р., Арипов Т.Ф.	

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib yaraga qarshi zahariligi kam yuqori samarali yangi gastroprotektor xususiyatiga ega dori vositalarini yaratish, o'rganish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'simlik xom oshyosidan olingan moddalar shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, shifobaxsh o'simliklar asosida olingan dorivor vositalar, kimyoviy yani sintetik vositalarga ko'ra organizm uchun nisbatan zararli ta'siri kam.

Respublikamiz tibbiyoti oldidagi dolzarb vazifalardan biri mahalliy o'simlik xomashyosi asosida yangi dori vositalarini izlash va yaratish hisoblanadi.

Maqsad. Dorivor o'simliklar quruq ekstrakti asosida me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasini davolashda qo'llaniladigan yuqori samarali dori yaratish. Biz bu maqsadda dorivor o'simliklar quruq ekstraktidan tashkil topgan Lesboxol preparatining yaraga qarshi faolligini o'rgandik.

Materiallar va uslublar. Lesboxol ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo hisoblangan dorivor o'simliklar – dag'al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko't (*Ziziphora pedicellata*), olqor o'ti (*Mediasia macrophylla*) va oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) respublikamizda ushbu preparatga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondiradi. Ushbu tajribalar kalamushlarda me'daning shikastlanish darajasi va paydo bo'lish mexanizmi bo'yicha bir-biridan farq qiladigan immobilizatsion stress, rezepin va indometasin me'da yarasi modellarida olib borildi. Makroskopik va biokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilindi Lesboxolning yaraga qarshi faolligini o'rganish uchun 180-200 g og'irlikdagi sog'lom oq tajriba kalamushlarda o'tkazildi.

Natijalar. Tadqiqotlar natijalari Biostat 2009 dasturiy ta'minot to'plamidan foydalangan holda statistik tahlil qilindi. $M \pm m$ xususiyatlarining ahamiyatini va Student kriteriyasiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan namunalardagi farqlarni o'zgartirish statistikasi usuliga muvofiq baholandi. Taqqoslangan guruhlardagi farqlar 95% ($p < 0,05$) ahamiyatlilik darajasida muhim deb hisoblandi. Lesboxolning 100 mg/kg dozada og'iz orqali kiritish stress, rezepin va indometasin tufayli yuzaga kelgan yaralar modellarida aniq yaraga qarshi ta'sir ko'rsatadi. 7-kun profilaktik davolangan kalamushlarda umumiy yaralar o'rtacha soni $15,82 \pm 0,77$ ni tashkil etdi, bu rebapimid va mizoprostol darajasida ekanligi qayd etildi. 14-kun mobaynida profilaktik davolangan kalamushlarda makroskopik jihatdan me'da shilliq qavatining regeneratsiyasi tez tiklandi. Biokimyoviy ko'rsatkichlar: crimaydigan glikoprotein tarkibiy qismlari sial kislotasi va geksoza miqdorini narozatga nisbatan 70% dan 90% gacha oshirgan.

Xulosa: O'tkazilgan eksperimental yara modellarida Lesboxol preparatining 100 mg / kg dozada me'da shilliq qavatiga aniq yaraga qarshi profilaktik ta'sir ko'rsatishi to'g'risida xulosa qilindi. Mahalliy o'simliklardan olingan ushbu majmuaviy preparat gastrit hamda me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasining oldini olish va davolashda istiqbolli preparatlardan biri bo'lishi mumkin.

EKSPERIMENTAL ETANOLLI GASTROPATIIYADA LESBOXOLNING GASTROPROTEKTIV TA'SIRI

Djanayev G'.Yu.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farmakologiya kafedrasida
e-mail: gayratdjanayev75@gmail.com, tel. (97)422-04-03

Dolzarbliigi. Har kuni dunyoda 30 milliondan ortiq odam nosteroid yalliglanishga qarshi vositalarni (NSYAQV) og'riq qoldiruvchi, yalliglanishga qarshi, antipiretik va trombozning oldini olishda antiagregant sifatida qabul qiladi. Bir yil davomida 300 milliondan ortiq odam NSYAQV larni qabul qiladi, ularning faqat 1/3 qismi NSYAQVlarni shifokorning retsepti bo'yicha qabul qiladi, 2/3 qismi retseptsiz. Qo'shma Shtatlarda har yili 30 milliarddan ortiq NSYAQV tabletkalari sotiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda ushbu guruhdagi sotilgan dorilar 20-30% ini qariyalar oladi. Yigirmanchi asming oxirida va joriy asming boshlarida NSYAQV larni iste'mol qilish har 10 yilda 2-3 marta oshirish tendentsiyasi mavjud. Buyuk Britaniyada har yili 2000 ga yaqin bemor NSYAQV bilan bog'liq asoratlardan vafot etadi. Ispaniyada NSYAQV qabul qilgan bemorlarning o'lim darajasi 100 ming kishiga 15,3 ni tashkil qiladi. AQShda yiliga 107 ming inson NSYAQVlarni qo'llash bilan bog'liq holat bo'yicha kasalxonaga yotqiziladi va 16,5 ming o'lim. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda me'da yarasi kattalar orasida dunyo aholisining 5% dan 15% (o'rtacha 7-10%) qismida uchraydi. Mamlakatlar bo'yicha G'arbiy Evropa,

me'da yarasining tarqalishi aholining o'rtacha 8,2%, AQShda 7-10%, Yaponiyada - 11%, Hindistonda - 25%. Rossiyada har o'ninchi aholi me'da yarasi bilan kasallangan. Rossiya Federatsiyasida kasallanish 100 ming kishiga 157,6 nafami tashkil qiladi. Eng yuqori kasallik Volga va Markaziy Osiyoda qayd etilgan. O'zbekistonda me'da yarasi bilan kasallanish 1000 aholiga 9-10 kishini tashkil etadi. So'nggi o'n yilliklarda gastroenterologiya farmakoterapiyasi soliasidagi yutuqlarga qaramay, me'da yarasi kasalligi me'da-ichak traktining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy yaraga qarshi dori vositalarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maqsad. Lesboxol (4 xil o'simlik - dag'al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko't (*Ziziphora pedicellata*), olqor o'ti (*Mediasia macrophylla*) va oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*)) quruq ekstraktlarning albinos kalamushlarda etanolli oshqozon shikastlanishida gastroprotektiv ta'sirini baholash.

Usul va uslublar. Tajribalar 36 ta erkak va urg'ochi Wistar kalamushlarida o'tkazildi. Tajriba hayvonlari 6 guruhga bo'lindi. 1-guruh nazorat, 2,3,4 guruhlarga mos ravishda lesboxol 25 mg/kg, 50 mg/kg, 100 mg/kg va 5-guruh qiyoslov 100 mg/kg rebamipid. Eksperimental guruh hayvonlari gastropatiyani modellashtirishdan oldin 7 kun davomida 2,3 va 4 guruhlarga lesboxol quruq ekstrakti, 5-guruhga rebamipid preparati og'iz orqali kiritildi: Etanol gastropatiyasi 10 ml / kg dozada etanolning bir martalik metal zond orqali intragastral kiritilishi bilan modellashtirildi. Oshqozon shilliq qavatida strukturaviy o'zgarishlar aniqlandi, ular kichik mayda nuqtali, katta yumaloq va tayoqcha chiziqli yaralarga ajratilgan. Oshqozonning patologik tadqiqotlari o'tkazildi.

Natijalar. Aniqlandi eksperimental guruhlarda oshqozonda umumiy zararlanishlar soni nazoratga qaraganda o'rtacha 2-guruhda 44% ga, 3-guruhda 67% ga, 4-guruhda 79% va 5-guruhda 86% ga kam bo'lgan. Profilaktik dori kiritilgan eksperimental guruhlarda katta yara uchun Pauls indeksi nazorat ko'rsatkichidan past edi. Bu guruhlarda hayvonlarning oshqozon devorida shilliq qavatning mushak plastinkasiga etib bormagan sayoz eroziyalar qayd etilgan: mikrosirkulyatsiya buzilishi va leykotsitlar infiltratsiyasi kamroq bo'lgan.

Hulosalar. Lesboxol ya'ni 4 xil o'simlik - dag'al bargli dalachoy (*Hypericum scabrum*), gulbargli kiyiko't (*Ziziphora pedicellata*), olqor o'ti (*Mediasia macrophylla*), oddiy qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) quruq ekstraktidan tashkil topgan majmuaviy preparatning kalamushlarda etanol ta'sirida chaqirilgan me'da yarasining remissiyasini tezlashtirganligi aniqlandi. Ushbu majmuaviy preparat gastrit hamda me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasining oldini olish uchun istiqbolli preparatlardan biri bo'lishi mumkin.

TEMIR TANQISLI ANEMIYANI DAVOLASHDA SUMBUL O'SIMLIGINI SAMARASI

¹Ergashova Sh.I., ²Yigitov A.O., ³Muxamadiyev N.K.

¹Samarqand veterinariya meditsinasi instituti,

²Samarqand viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi,

³Samarqand davlat universiteti

tel.: +998937260837, e-mail: shahnoza080404@gmail.com

Anemiya kasalligi butun dunyoda tarqalgan bo'lib, ayniqsa bizning mamlakatimizda ayollar va bolalar orasida keng uchraganidan zamonaviy tibbiyotning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Butun dunyoda anemiya kasalligiga chalingan bemorlar aholining 24,8% ni tashkil qiladi; eng yuqori tarqalganlik maktabgacha yoshdagi bolalar orasida (47,4%), undan keyin esa homilador ayollar (41,8%) va reproduktiv yoshdagi ayollarda (30,2%). Anemiya kasalligi ayniqsa, Janubi - Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, shu hududlarda reproduktiv yoshdagi ayollarning deyarli yarmi anemiya bilan kasallangan. Mamlakatimizda anemiya kasalligi sog'liqni saqlashning alohida muammosi bo'lib qolmoqda, ya'ni homilador ayollarning 31,4 foizini va reproduktiv yoshdagi ayollarning 26,5 foizini tashkil qiladi.

Anemiya asosan boshqa kasalliklar ta'sirida paydo bo'lganligi sababli ikkilamchi holat sifatida ham qaraladi. Shuning uchun muntazam ravishda dori preparatlarini qabul qilish natijasida organizm zaharlanishi hisobiga anemiya kasalligi paydo bo'lishi ham ko'p uchraydigan holatlardan biridir. Demak hozirgi sintetik dori vositalari anemiyaning davolash asnosida organizmdagi ayrim a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy tabobat usullari bilan davolash esa har tomonlama samarali va zararsiz hisoblanadi.